

O'G'UZ LAHJASIDA KO'P MA'NONI IFODALOVCHI QISHLOQ XO'JALIGIGA DOIR SO'ZLAR (F.ABDULLAYEV "XORAZM SHEVALARI" LUG'ATI MISOLIDA)

Mohira Sa'dullayeva

NDPI 2-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12568452>

Annotatsiya. Mazkur maqolada polisemantik so'zlar, ularning izohi keltirilgan. Shu bilan birga so'zlar leksik-semantik tahlil etilib, guruhlarga ajratilgan.

Kalit so'zlar. Sheva, lahja, lug'at, polisemiya, leksik-semantik.

Abstract. This article presents polysemantic words and their explanation. At the same time, words are lexically-semantically analyzed and divided into groups.

Keywords. Dialect, dictionary, polysemy, lexical-semantic.

O'zbek tilining shakllanishi va boyib borishida shevalarning o'rni va ahamiyati katta. Ma'lum bir davrda, hududda qo'llanilgan va bugungi kunda ham kichik doiralar nutqida bo'lsa-da saqlanib qolingan shevaga oid so'zlar mavjud. F.Abdullayevning "Xorazm shevalari" kitobida keltirilgan 2 mingdan ortiq lug'atlar orasidan 400 ga yaqin polisemiylar olindi va so'zlarni leksik-semantik guruhlarga ajratib, ular tahlil qilindi. Muallif ta'kidlaganidek, "... Ko'p ma'noli so'zlar arab raqami bilan ko'rsatildi (1,2,3). Bunda asosiy ma'noni ifoda etuvchi so'z birinchi o'rinda berilib, qolganlari uning ma'no tarmoqlari sifatida (ko'chma ma'noli so'zlar ham) tartib bilan joylashtirildi..."¹

Jumladan, lug'at tarkibida kelgan ko'p ma'noli so'zlar shartli ravishda dehqonchilik va yerga oid, chorvachilik va hayvonlar, uy-ro'zg'or buyumlari va asbob-uskunalar, oziq-ovqat nomlari, daraxt va o'simlik nomlari kabi guruhlarga ajratildi.

(So'zlar manbadagidek aynan keltirildi va sahifasi yozildi)

1. **Dehqonchilik va yerga oid polisemiylar:** **Айрѣт** (1. Очик; 2. Ажрим; 3. Сув ёки йўлнинг иккига ажралган ери. 18-бет), **алан** (1. Бекор ётган ер, бўз ер; 2. Сув оқмайдиган эски ариқ; 3. Ариқ каналдан қазиб олинган тупроқ. 18-бет), **аныз** (1. Экин олингандан кейин бўш қолган ер; 2. Экилмай қолган яроқли ер. 19-бет), **атав** (1. Орол; 2. Дарё ўртасида сув оқмай қўйган ер парчаси; 3. Тўқай, чангалзор, чакалакзор. 20-бет), **боз** (1. Бўз ер; 2.бўз (от) 28-бет), **ғора** (1. Пишмаган, хом; 2. Шингил, бош. 34-бет), **ыйк** (1. Сув оқими, сувнинг оқиб турган томони; 2. Истак, хоҳиш 49-бет), **қулақ** (1. Қулоқ (сув қулоғи); 2. Чанақ (-кастрюль), **лар** (1. Милтиқнинг бир тури; 2. Сув ўйиб кетган ер (ложбина), **лётарэ** (1. Тўртта; 2. Сувнинг тагига чўккан лой 65-бет), **онайламақ** (1. Текисламоқ (ерни экишга тайёрлаб қўймоқ); 2. Пойламоқ 71-бет), **чэртэк** (1. Чайла, қапа; 2.дала шийпони 97-бет), **ша:вэр** 1. Чимлик, серсув ўтлоқ, дала; 2. Режа (усталар ишлатадишан асбоб-учига тош боғланган ип) 102-бет);

2. **Chorvachilik va hayvonlar :** **Әвэч** (1. Икки яшар қўй, ғунон; 2. Ундов. 22-бет), **бабър** (1. Бир тур ҳайвон; 2. Йирик, семиз (одам, ҳайвон). 24-бет), **дън** (1. Чек, чегара; 2. Минорача (қўйчивонлар саҳрода қўйларни кузатиш учун ясайдилар) 37-бет), **йатағ** (1. Ёталоқ; 2. Қизлар мажлиси; 3.Қўйлар ётадиган жой. 51-бет), **ақмач** (1. Кептирилган балиқ; 2. Ориқ (киши, ҳайвон) 59-бет), **қуйрық** (1. Дум, қуйруқ; 2. Думба 63-бет), **пърсълдавық** (1. Мунчоқ (шишадан ясалган мунчоқ); 2. Балиқнинг пуфаги 75-бет), **равақ** (1. Равоқ; 2. Икки устуннинг оралиғи, кўприк усти; 3. Болохона деворига шабада кириш

¹ Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари 1., Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. Т.: 1961. 10-бет

учун қўйилган тешик 76-бет), сўрь (1. Тўда, тўп; 2. Қўй подаси 84-бет), **тайлақ** (1. Туянинг боласи; 2. Яланғоч 84-бет), **та:зъй** (1. Қамчи; 2. Този (ит) 85-бет), **ҳөвлъ** (1. Ҳовли; 2. Молхона, оғил 94-бет), **чавак** (1. Балиқнинг майдаси; 2. Чабъқ 95-бет), **шърға** 1. Тақир кал, боши йилтироқ кал; 2. Отларнинг туёқлари юқорисидан чиқадиган яра 104-бет), **ка:за** (1. Кичик капа (овчилар қуш пойлаш учун қўллар бўйига тикадилар); 2. Қаза 54-бет);

3. **Уу-ро'зг'ор buyumlari va asbob-uskunalar: Абзал** (1. Афзал; ортиқ, 2. Асбоб, қурол, жабдуқ, 3. Penis 16-бет), **авсар** (1. Туя нўхтасига боғланган темир; 2. Овсар, анқов. 16-бет), **айръ** (1. Паншаха, ёғоч айри; 2. Дарахтнинг катта йўғон шохи. 18-бет), **анал** (1. Ўроқнинг катта тури (тишсиз); 2. Манқал (ўт ёқиб қўядиган идиш) 18-бет), **арва арава; арвачъ:** (1. Аравакаш; 2. Аравасоз. 19-бет), **ғырав** (1. Ип; 2. Қамишнинг бир тури. 34-бет), **дасламақ** (1. Қирмоқ, сидирмоқ, шилмоқ (тери гўштдан ажратилгандан кейин қолган ёғни пичоқ билан тозаламоқ); 2. Рандаламоқ, 35-бет), **дүдән** (1. Кичик саватча (балиқчилар асбоби); 2. Нон, гўшт солиб қўядиган саватю 40-бет), **дү:ткәш** (1. Мўри, труба; мискарлар асбоби (дам) 40-бет), **ешмәк** (1. Эшмоқ; 2. Эшкак урмоқ, эшкак уриб сузмоқ 42-бет), **зәнъ** (1. Нарвон шоти; 2. Араванинг олд қисмига қўйиладиган тахта 46-бет), **кәләнтәр** (1. Обкаш; 2. Аъён, амалдор 55-бет), **кәлләк** (1. Каллак (дарахт шохини чопиш); 2. Тўсиқ, халақит 55-бет), **қалақ** (1. Жува (хамир ёядиган кичик ўқлов); хамирни, аталани булайдиган ёғоч; қалоқ; 3. Эшкакдан каттароқ курак (қайиқни йўлга солиш учун қўлланилади) 59-бет), **ләгән** (1. Хамир қиладиган идиш; 2. Лаганбардор 64-бет), **ләнгәр** (1. Хорознинг (тегирмоннинг) устига қўйиладиган тош; 2. Дарвозлар таёғи (лангари) 65-бет), **лә:ль** (1. Тунука товоқ (нақшли бўлади); 2. Хушрўй, чиройли 65-бет), **манал** (1. Тишсиз ўроқ; 2. Тос (қир ювадиган тос) 66-бет), **нәй** (1. Най (музыка асбоби); 2. Мискарлар ерга қоқиб, устида нарса ишлайдиган асбоб 69-бет), **пльсләмәк** (1. Ипни уламоқ (этикдўзлар истилоҳи); 2. Илашмоқ, алангламоқ 75-бет), **пъшке** (1. Ип ўраш учун ясалган чўп, қамиш; 2. Пилта, дўппига тиқиладиган пахта, қоғоз; 3. Йигиришга тайёрланган пахта тутами 75-бет), **сандал** (1. Сандон; 2. Этикдўзлар асбоби (ерга қоқиб қўйиб, мих қайтарадиган асбоб) 78-бет), **сархым** (1. Сув кўзасининг қопқоғи; 2. Кружка 79-бет), **сахтъйан** (1. Маҳси қиладиган бир тур тери; 2. Гурланда бир қишлоқ номи 79-бет), **сорғыч** (1. Босма (промакашка); 2. Елим 83-бет), **тәндърчә** (1. Исинадиган махсус ўчоқча (уй устига қуриб, чўғ солиб қўядилар); 2. Ўчоқнинг, печнинг олди 86-бет), **тәннө** (1. Зовур устига қурилган нов; 2. Бурун тешиги 86-бет), **тоғанақ** (1. Бўялган терини чўзиш ва теккислаш учун қўлланадиган асбоб; 2. Ўтинчиларнинг илмоғи. 87-бет), **чанақ** (1. Ёғочдан ясалган коса (эски): ёғоч товоқ, чаноқ; норин товоқ шаклидаги идиш; 2. Уруғ экадиган уя 96-бет), **чүндък** (1. Жўмрак; 2. Тумшуқ 100-бет), **шахна** (1. Пичоқнинг тиғи билан дастаси ўртасига ўрнатиладиган жез, темир ҳалқа; 2. Биринчи сувоқ, хом сувоқ. 102-бет), **шо:зън** (1. Тасма, бўйинччани арава шотисига бириктирадиган қайиш; 2. Лапашанг, имиллаб ишловчи, чўзиб сўзловчи; 3. Новча 104-бет);

4. **Oziq-ovqat nomlari : Шърмайъ** (1. Ноннинг бир тури; 2. Пичоққа соп бўладиган бир хил суяк. 104-бет), **чо:ған** (1. Сапча, ғўра; 2. Бемаза пишган овқат), **чөп** (1. Чўп; банд-ғов: арава, от ўтмаслик учун қилинган тўсиқ; 2. Тўғон 99-бет), **нуқул** (1. Аъло, жуда яхши (нав); яхши нав ўрик; 2. Ширинликнинг бир тури 70-бет), **қатърмач** (1. қатирмоч (товада пишган нон); 2. Қақърмач 60-бет);

5. **Daraxt va o'simlik nomlari:** **Аиқын** (1. Пайванд қилинмаган тут; 2. Жиннисимон, мияси айниган (одам). 21-бет), **ғавача** (1. Узун толали пахта; 2=Ғо:вача 33-бет), **гүлдьрма:ма** (1. Момақалдиروق; 2. Бир тур ўт. 33-бет), **дамар** (1. Томир; 2. Илдиз. 35-бет), **жүжжък** (1. Толнинг куртак чиқарган нуқтаси, баргак; 2. Ёш тол. 45-бет), **көткә** (1. Ўсимликнинг қуйи қисми; 2. Тўнка 57-бет), **қарғалық** (1. Ёғоч, шохдан қилинган ғов, девор (боғлар теварагига тўсилади); 2. Ёғоч панжара 60-бет), **лоққъ** (1. Меванинг каттаси, лўппи; 2. Бўш, ичи тушган 65-бет), **лук** (1. Лук (қовун осадиган лук); 2. Оқ жўхорининг бошоқсиз қисми, танаси. 65-бет), **нәрван** (1. Сада (қайрағоч); 2. Қайрағоч (аравага ишлатиладиган тури, тик ўсади, ғоят мустақкам, чидамли бўлади) 69-бет), **нохта** (1. Нўхта; 2. Лук (қовун ўсадиган нўхта) 70-бет), **поррық** (1. Қамиш томири; 2. Тўлқин чиқариб ташлаган ўтин, ҳашак 76-бет), **поррық** (1. Қамиш томири; 2. Тўлқин чиқариб ташлаган ўтин, ҳашак 76-бет), **хада** (1. Таёқ; 2. Дарахтнинг тўғри шохи 91-бет), **хамма** (1. Тегирмонда ун тушадиган жой; хампа; 2. Тобиға келтирилган лой; 3. Қовуннинг бир тури 92-бет), **чомър** (1. Каллакланган (шоҳлари кесилган) дарахт; 2. Куч-қувватдан қолган (чол киши) 99-бет);

6. **Ovga oid so'zlar:** **Ав** – (1. ов. 2 = аф. 16-бет), **аф** (1. Ов; балиқ ови. 2. Балиқ тутадган тўр. 16-бет), **ка:за** (1. Кичик кана (овчилар қуш пойлаш учун кўллар бўйига тикадилар); 2 қаза 54-бет), **тор** (1. Ов тўри; 2. Дераза пардаси; 3. Тўриқ (от ранги) 88-бет);

Yuqorida keltirilganlardan tashqari yana bir necha o'ziga xos guruhlar mavjud. Tadqiqot davomida "Buxoro-o'g'uz shevalarining leksikasi" monografiyasida ham leksik-semantik tahlil etilgan turli sohalarga oid mavzuiy guruhlar tasnif etilganligi kuzatildi. "Binobarin, BO'Sh leksik boyligini mavzuiy guruhlariga ajratib tahlil qilish tilshunoslik uchungina emas, balki xalqimiz tarixi, uning kelib chiqishini o'rganuvchi soha-etnografiya uchun ham qimmatli va boy ma'lumotlar beradi".² Demak, ko'p ma'noli so'zlarning tematikasini tahlil qilish asrlar davomida xalqimiz shug'ullangan sohalar, foydalanib kelgan narsa-buyumlar, iste'mol qilgan oziq-ovqatlar singari qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

"F.Abdullayev Xorazm shevalarini 1950-yildan boshlab o'rganishga kirishdi. "Xorazm shevalari, 1" nomli asar mana shu o'n yillik mehnat natijasi sifatida maydonga keldi"³ Ushbu asar tarkibidagi lug'at, hayotning barcha jabhasini qamrab olganligi, mavzu doirasi kengligi, transkripsion belgilar mavjudligi, hududlararo taqsimlanishi, shuningdek, fonetik tahlil va so'zlarning adabiy tildagi ekvivalenti berilishi, har bir lug'at uchun izoh o'rnida maxsus misol (gap) keltirilishi bilan qimmatli va qadrlidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hali tahlil qilinishi lozim bo'lgan shevaga oid so'zlar va ularning leksik-semantik guruhlari talaygina. Ushbu maqolada bir kitob takibida kelgan o'g'uz lahjasiga oid lug'at tahlili keltirildi.


References:

1. A.Allaberdiyev. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi. M. Navoiy-2023.
2. Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари 1, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. Т.: 1961.

² A.Allaberdiyev. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi. M. Navoiy-2023. 10-bet

³ О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти. Т.: 1973

3. О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Т.: 1973.



INNOVATIVE
ACADEMY